



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

No8
MAXSUS SON



BAKALAVR TALABALARINIG MAQOLALARI TO'PLAMI



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Elektron nashr. 208 sahifa.

2025-yil noyabr

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Viktorovna, Candidate of Economic Sciences (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 28-fevraldagi
333/5-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

MEHMONXONA KORXONALARIDA INNOVATSION LOYIHALARNI AMALGA OSHIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	10
Erkaboyeva Jasmina Safarali qizi, Ochilova Hilola Farmonovna	
FAULT TOLERANCE AND SELF-HEALING IN IOT-ENHANCED P2P SYSTEMS	15
Ibrokhimkhuja Rikhsikhujayev, Mohit Bhandwal	
BIZNES BOSHQARUVIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	22
Ikromov Boisxon Bahodir o'g'li, Ozodbek Musayev	
BIOLOGIYA FANINI O'QITISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA VIRTUAL LABARATORIYADAN FOYDALANISHNING SAMARADORLIGI.....	27
Turayeva Sabrina Kamoliddin qizi, Qodirov Farrux Ergash o'g'li	
YASHIL LOGISTIKA VA TRANSMILLIY KORPORATSIYALAR.....	32
Rafiqov Abror Baxtiyor o'g'li, Narzullayev Elmurod Shuxrat o'g'li	
OMBORXONALARNI BOSHQARISHDA RFID TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISHNI AFZALLIKLARI	36
Mirkamolov Mirsardor Mirxamdami o'g'li, Yuldashev Abduhakim Abdukarimovich	
STARTAPLAR VA KICHIK BIZNESNING IQTISODIY O'SISH VA RIVOJLANISH JARAYONLARIDAGI ROLI	41
Abdumajidova Muxlisa Alisher qizi, Umarova Mukaddas Abbasovna	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY SUG'URTA TIZIMIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI XORIJ TAJRIBASI ASOSIDA QO'LLASH ISTIQBOLLARI	46
Sobirova Ozoda Rustamovna, Safarov Javohir Ismoilovich	
IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHDA MILLIY TO'LOV TIZIMLARINING ELEKTRON TIJORATDAGI AHAMIYATI.....	50
Teshayev Sayimbek Anvarovich, Tashmuxeamedova Yayra Atxamovna	
CHANGES IN PULSE RATE IN BLOOD VESSELS DURING PHYSICAL EXERCISE	56
Pirnazarov Elchin Anvar o'g'li, Yoldasheva Roila Jumaevna	
JAHON IQTISODIYOTIDA GLOBAL XAVFSIZLIK VA IQTISODIY BARQARORLIK	61
Qayumov Sobit Obid o'g'li, Xasanov Nodir Erkinovich	
LABOR RESOURCES – THE MAIN FACTOR OF NATIONAL DEVELOPMENT.....	68
Qurbanov Tolmasjon Namoz ugli, Mustafayev Golib Sultonmurodovich	
ISTE'MOLCHI TANLOVI VA NAFLILIK NAZARIYASINI ILMIY ASOSLARI.....	75
Q.Abdukarimov, M.Keldibekova, F.Umarov	
KORXONALARDA RAQAMLI MARKETINGDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH	80
Tumaris Nietullaeva, Alimxodjayeva Nargiza Elshodovna	
OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING INSON VA JAMIYAT HAYOTIDAGI TA'SIRI HAMDA AXBOROT XURUJLARI	87
Kodirov Ozodbek, F.Umarov	
QURILISH MATERIALLARI SANOATIGA KIRITILAYOTGAN INVESTITSIYALAR TAHLILI VA TARMOQNING MAMLAKAT EKSPORTIDAGI O'RNI.....	93
G'ulomiddin Bobobek Sardorjon o'g'li, G'ulamov Ilhom Akramovich	
BIZNESNI BOSHQARISHDA ERP TIZIMIDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI	98
Abduhamidova Shodiyaxon Abdushukur qizi, Yuldashev Abduhakim Abdukarimovich	
O'ZBEKISTON VA AFG'ONISTON HAMKORLIK MUNOSABATLARINING YANGI BOSQICHI	103
Fayzullayev Aminjon, F.Umarov	
O'ZBEKISTONDA HUDUDLAR IQTISODIY RIVOJLANISHIDAGI TAFOVUTLAR	110
Najmiddinova Malikabonu Asrorovna, F.Umarov	
TO'QIMACHILIK SANOATIDA CHARM-POYABZAL TARMOG'INING RIVOJLANISH YO'NALISHLARI XUSUSIDA	117
Mahmudov Orifbek Abdumomin o'g'li, Azmiova Feruza Payziyevna	



O'ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING TARKIBIY RIVOJLANISHI VA UNING IQTISODIY SAMARADORLIKKA TA'SIRI	122
Xayrullayev Javohir Sheraliyevich, Maqsudov Bunyodjon Abdusamat o'g'li	
MINTAQALARNI IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANISHINI TARTIBGA SOLISH VA XALQARO TAJRIBA.....	128
Xudoyberdiyev Feruzbek, F.Umarov	
MINTAQALAR IQTISODIYOTINING RIVOJLANISH HOLATINI BAHOLASH: TAHLIL VA USTUVOR YO'NALISHLAR.....	135
Yarashev Mirkomil, F.Umarov	
OROL DENGIZI INQIROZI OQIBATIDA YER DEGRADATSIYASI VA YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH IMKONIYATLARI: QORAQALPOG'ISTON MISOLIDA (NDVI VA NDMI TAHLILI ASOSIDA)	141
Nurmatova Shahzoda, Oralbaev Bakhitjan Orintaevich, Ruziyeva Iroda Davutovna, Turotova Nigora Xolmurod qizi	
MINTAQADA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI	147
Abubakirova Xonzoda, F.U.Umarov	
ИНФОРМАЦИОННАЯ БЕЗОПАСНОСТЬ И МОЛОДЁЖЬ: ПРОБЛЕМЫ ДУХОВНОГО ИММУНИТЕТА В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ	154
Абдуллаев Бехзод Баходир угли, Байбобоева Фируза Набижоновна	
SUN'IY INTELLEKT NAZARIYASI VA AMALIYOTI: TAJRIBALAR, MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR	158
Hamroyeva Dilnura G'ayrat qizi, To'qmirzayev Kamol Mo'min o'g'li	
QISHLOQ HUDUDLARIDA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHDA XALQARO TASHKIOTLARNING (FAO, UNDP, IFAD) LOYIHALARI TAJRIBASI	162
Z.B.Negmatullayeva, O.Q.Xudayberdiyeva	
O'ZBEKISTON RAQAMLI IQTISODIYOTI VA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINING IQTISODIY O'SISH STRATEGIYASIDAGI O'RNI.....	168
Bo'riyev Behruzbek Bahodir o'g'li, Elov Dilshod Abdujabborovich	
«ЦИФРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ КЛИЕНТСКОГО ОПЫТА В БАНКАХ: ИНТЕГРАЦИЯ ОМНИКАНАЛЬНЫХ СТРАТЕГИЙ И СОВРЕМЕННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ»	173
Каримов Диёрбек Дилшод ўгли, Уснатдинов Миратдин Саламатдинович, Юлдашев Жамшид Аббарович	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA INFLYATSIYANING ASOSIY OMILLARI VA ULARNI KAMAYTIRISH STRATEGIYALARI.....	182
Bazarbaeva Dildora Ekramjon qizi, Koshanov Abdimurat Azat uli	
ОСОБЕННОСТИ МАКРОЭКОНОМИЧЕСКОЙ СТАБИЛЬНОСТИ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	188
Хайруллаев Хожиакбар, Ишонкулова Феруза Асатовна	
QISHLOQ XO'JALIGIDA YASHIL TEXNOLOGIYALARNING QO'LLANILISHI.....	193
Sharipboyev Hasanboy Marks o'g'li, Olimov Maqsudjon Komiljon o'g'li	
HALOL MEHMONXONALARNI TASHKIL ETISHNING AHAMIYATI.....	198
Farxodov Zafar Qaxramon o'g'li, Shaymanova Nigora Yusupovna	
TIJORAT BANKLARINING BARQARORLIGINING MAMLAKAT IQTISODIYOTIDAGI O'RNI.....	203
To'rayeva O'g'iloy G'iyosovna, Dilmurodov Jurabek Ulug'bek o'g'li, Mirzayev Mirza Abdullayevich	



TIJORAT BANKLARINING BARQARORLIGINING MAMLAKAT IQTISODIYOTIDAGI O'RNINI

To'rayeva O'g'iloy G'iyosovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Moliya fakulteti talabasi

Dilmurodov Jurabek Ulug'bek o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari fakulteti talabasi

Ilmiy rahbar:

Mirzayev Mirza Abdullayevich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Xalqaro moliya kafedrasida dotsenti, PhD

Annotatsiya: Ushbu maqolada tijorat banklarining barqarorligining mamlakat iqtisodiyotiga ta'siri o'rganilgan. Bundan tashqari, banklarning barqarorligini ko'rsatadigan turli xildagi ko'rsatkichlar formulalari bilan berilgan. Statistik ma'lumotlar asosan 2024-yil bo'yicha ko'rsatilgan. Bank barqarorligi iqtisodiy o'sishni ta'minlash, real sektorni uzluksiz moliyalashtirish hamda moliyaviy xavfsizlikni mustahkamlashning muhim omili sifatida ko'rib chiqiladi. Tadqiqot jarayonida tijorat banklari barqarorligini baholashda qo'llaniladigan asosiy ko'rsatkichlar va ularning iqtisodiy mazmuni yoritib beriladi. Kapital monandligi, likvidlik darajasi, aktivlar sifati va kredit portfeli holatiga alohida e'tibor qaratiladi. Shuningdek, bank risklarini samarali boshqarish tizimining barqarorlikka ta'siri tahlil qilinadi. Maqolada bank tizimi beqarorligining iqtisodiyotga salbiy oqibatlar ham ilmiy jihatdan asoslab beriladi. Tadqiqot natijalari tijorat banklari faoliyatini takomillashtirish va mamlakat iqtisodiy barqarorligini mustahkamlash bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: kapital monandligi, kapitallashish darajasi, bozor tavakkalchiligi, trast, depozitar operatsiyalari, bank barqarorligi, jamg'arma, kredit portfeli, aktivlar qiymati.

Abstract: This article studies the impact of the stability of commercial banks on the country's economy. In addition, various indicators indicating the stability of banks are given with formulas. Statistical data are mainly presented for 2024. Bank stability is considered an important factor in ensuring economic growth, continuous financing of the real sector, and strengthening financial security. The research process highlights the main indicators used to assess the stability of commercial banks and their economic content. Particular attention is paid to capital adequacy, liquidity level, asset quality, and the state of the loan portfolio. The impact of an effective banking risk management system on stability is also analyzed. The article also scientifically substantiates the negative consequences of banking system instability on the economy. The results of the research serve to develop practical recommendations for improving the activities of commercial banks and strengthening the country's economic stability.

Key words: capital adequacy, level of capitalization, market risk, trust, depository operations, bank stability, savings, loan portfolio, asset value.

Аннотация: В данной статье исследуется влияние стабильности коммерческих банков на экономику страны. Кроме того, приводятся различные показатели стабильности банков с формулами. Статистические данные представлены в основном за 2024 год. Стабильность банков рассматривается как важный фактор обеспечения экономического роста, непрерывного финансирования реального сектора и укрепления финансовой безопасности. В процессе исследования выделены основные показатели, используемые для оценки стабильности коммерческих банков, и их экономическое содержание. Особое внимание уделяется достаточности капитала, уровню ликвидности, качеству активов и состоянию кредитного портфеля. Также анализируется влияние эффективной системы управления банковскими рисками на стабильность. В статье также научно обосновываются негативные последствия нестабильности банковской системы для экономики. Результаты исследования служат основой для разработки практических рекомендаций по совершенствованию деятельности коммерческих банков и укреплению экономической стабильности страны.

Ключевые слова: достаточность капитала, уровень капитализации, рыночный риск, траст, депозитарные операции, устойчивость банка, сбережения, кредитный портфель, стоимость активов.



KIRISH

Bugungi kunda tijorat banklari iqtisodiyotning muhim qon tomiri va ularning mamlakat iqtisodiyotidagi o'rnini beqiyos hisoblanadi. Shu nuqtai – nazardan kelib chiqib, banklar yuridik va jismoniy shaxslarning pul mablag'larini akkumulyatsiya qilish va uni tavakkalchilikni o'z zimmasiga olgan holda joylashtirib yuqori foyda olishga intiladi. Banklar tomonidan ajratilgan kreditlar va boshqa aktiv operatsiyalar natijasida shakllangan aktivlar banklarning asosiy daromad manbai bo'lib hisoblansa, ikkinchi tomonidan ushbu mablag'lar qarz oluvchi sub'yektlarning biznesini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi [6].

Tijorat banklari xalqaro savdoni osonlashtiradigan akkreditivlar va bank kafolatlari kabi savdoni moliyalashtirish xizmatlarini taqdim etadilar. O'zbekistonda tijorat banklari moliyalashtirishdan tashqari moliyaviy inklyuzivlikni rivojlantirishda ham muhim rol o'ynaydi. Ular barcha daromad darajasidagi jismoniy shaxslarga, jumladan, omonat hisobvaraqlari, debet kartalari va shaxsiy kreditlar uchun bir qator moliyaviy mahsulotlar va xizmatlarni taklif etadi. Bu mamlakatda moliyaviy savodxonlik va inklyuzivlikni rivojlantirishga yordam beradi. Tijorat banklari ham aholi va tadbirkorlik subyektlarining jamg'armalarini jalb etish orqali iqtisodiyotning yuksalishiga salmoqli hissa qo'shmoqda. Ular ushbu mablag'larni birlashtiradi va ularni iqtisodiyotning turli tarmoqlariga sarmoya kiritish uchun ishlatishga imkon beradi. Bu iqtisodiy o'sish va rivojlanishni rag'batlantirishga yordam beradi [4].

O'zbekiston Respublikasi Markaziy Bankining 2015-yil 6-iyulda 2693-sonidagi "Tijorat banklari kapitalining monandligiga qo'yiladigan talablar to'g'risida"gi nizomida tijorat banklarining barqarorligini belgilovchi barcha ko'rsatkichlar, ularning talab darajasi belgilab qo'yilgan [1].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Shunisi ma'lumki, tijorat banklarining faoliyati, barqarorligi iqtisodiyotga to'g'rida-to'g'ri ta'sir qiladi. Tijorat banklarining barqaror bo'lishi ularning mamlakatdagi jismoniy va yuridik shaxslarga ko'rsatadigan xizmatlari sifatini, aholi ishonchini belgilab beradi, ya'ni banklar qanchalik barqaror ko'rsatkichlarni ko'rsataversa, shuncha ularga nisbatan aholi ishonchi ortadi va bank xizmatlaridan foydalana boshlaydi. Aksincha, bank barqarorligi pasayib, bankrot holatga yaqinlashaversa, aholi omonat (deposit) qo'yishdan cheklanadi, kredit olishga qo'rquv paydo bo'ladi. Bankning barqarorligini o'lchaydigan bir nechta ko'rsatkichlar bor va ulardan eng ahamiyatlilardan biri bu bank kapital monandligi ko'rsatkichi (CAR)dir. Bu ko'rsatkich bank kapitalining xavf darajasi inobatga olingan aktivlarga nisbati. Ya'ni, bank kapitali xavflarni qoplashga yetadimi yoki yo'q, shuni ko'rsatadigan ko'rsatkichdir. Bu kapitallashishning yanada professional xalqaro mezon bo'lib, Basel standartlari asosida hisoblanadi va quyidagi formula orqali aniqlanadi [1]:

$$CAR = (\text{Regulyativ kapital} / \text{TAUS}) * 100$$

Bu yerda: TAUS- tavakkalchilikni hisobga olgan aktivlarning umumiy summasi

TAUS quyidagi formula orqali aniqlandi: $TAUS = BBA + OT + BT$

Bu yerda: BBA- tavakkalchilikni hisobga olgan balans+balansdan tashqari aktivlar (chegirmalardan so'ng)

OT- Operatsion tavakkalchilik

BT- Bozor tavakkalchiliklari

OT-Operatsion tavakkalchilik summasi. Bu bankning kundalik operatsiyalaridan kelib chiqadigan xatolar, texnik muammolar, firibgarlik, hatto tabiiy ofatlar bilan bog'liq xavflar.

$$OT = (100 / K1min) * (\text{so'nggi 3 yil o'rtacha yalpi daromad} * 15\%)$$

K1min- regulyativ kapital uchun minimal talab (13%).

Yalpi daromad- (foizli daromadlar- foizli xarajatlar)+ (foizsiz daromadlar-foizsiz xarajatlar). Agar bir yilda yalpi daromad 0 yoki salbiy bo'lsa- o'sha yil hisobdan chiqariladi.

BT-Bozor tavakkalchiliklari summasi. Bu valyuta o'zgarishidan keladigan xavf.

$$BT = (100 / K1min) * (\text{Ochiq valyuta pozitsiyasi} * 10\%)$$

Bundan tashqari, leveraj koeffitsiyenti tushunchasi bor. Leveraj koeffitsiyenti — bu bankning I darajali kapitali (asosiy kapitali) bankning umumiy aktivlariga nisbatan qancha ulushni egallashini ko'rsatadigan ko'rsatkich. Minimal talab 6% qilib belgilangan. Ya'ni har 100 so'mlik aktivga kamida 6 so'mlik "sof va ishonchli kapital" kerak. Leveraj koeffitsiyent, bu risksiz, soda, xavfsizlik baholash ko'rsatkichi hisoblanib, Basel III tomonidan banklarning haddan tashqari risk olib ishlashini cheklash uchun joriy qilingan.

Banklarning iqtisodiyotdagi ahamiyati juda ko'pqirrali bo'lib, ularning asosiylari quyidagilardan iborat:

- Jamiyatdagi vaqtinchalik bo'sh pul mablag'larni tegishli shartlar asosida o'ziga jalb etadi;




- Qo'shimcha moliyaviy mablag'larga ehtiyoji mavjud xo'jalik yurituvchi subyektlar va aholiga qaytarishlik, to'lovlik, muddatlilik va ta'minlanganlik asosida mablag'lar beradi;
- Milliy valyutaning emissiyasini tashkil etadi va uning barqarorligini ta'minlash doirasida pul-kredit siyosatini amalga oshiradi;
- Pul aylanmasini tashkil etadi va uning tartibini belgilaydi;
- Iqtisodiy munosabatlarga kirishuvchi subyektlar o'rtasida hisob-kitob va to'lovlarni amalga oshirishda vositachilik qiladi;
- Bozor ishtirokchilariga turli darajadi komission va maslahat xizmatlarini amalga oshiradi;
- Aholiga va mijozlarga trast va depozitar xizmatlarini taklif etadi;
- Vaqtinchalik bo'sh pul mablag'larini jamg'arish asosida ularni iqtisodiyotning tegishli tarmoqlariga qayta taqsimlashda namoyon bo'ladi [5].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mavzuni o'rganishda umumiylikdan xususiylikka va aksincha tartibda deduktсион yoki induksiон usullardan foydalanish samarali bo'ldi. Ilmiy tahlil jarayonida ana shu ilmiy tadqiqot usullari, xususan, kuzatish, umumiyashtirish, guruhlash, taqqoslash, tahlil qilishda sintetik va analitik usullardan keng foydalanildi.


TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston Markaziy banki 2025-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, bank sektori bo'yicha asosiy moliyaviy ko'rsatkichlarning barqaror o'sishini ko'rsatgan ma'lumotlarni e'lon qildi. Tijorat banklarining jami aktivlari 866,8 trln. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 17 foizga o'sdi. Kredit portfeli 582,2 trillion so'mga (+13 foiz), jami kapital 130,4 trillion so'mga (+19 foiz), depozitlar esa 371,5 trillion so'mga (+29 foiz) o'sdi. Jami aktivlarning 65 foizini, kredit portfelining 68 foizini, kapitalning 61 foizini va depozitlarning 52 foizini nazorat qiluvchi davlat banklari moliya sektorida ustunlik qilishda davom etmoqda. Davlat banklari orasida 145,2 trillion so'm aktivlari bilan O'zbekiston Milliy Banki yetakchilik qilmoqda (tijorat banklarining umumiy aktivlarining 17 foizi), uchinchi o'rinda "Agrobank" 100,99 trillion so'm (12 foiz) va "O'zsanoatqurilishbank" 95,21 trillion so'm (11 foiz). Kreditlar hajmi bo'yicha, shuningdek, O'ZMB 104,82 trillion so'm (jami 18 foiz) bilan yetakchi, uchinchi o'rinda "Agrobank" 77,03 trillion so'm (13 foiz) va "O'zsanoatqurilishbank" 66,6 trillion so'm (11 foiz) hisoblanadi [3].



1-rasm. Bank tizimining kapital yetariligi ko'rsatkichi dinamikasi [2].

2024-yilda bank tizimining jami kapitali hajmi 18 foizga oshib, 115 trln so'mga, ustav kapitali hajmi 22 foizga o'sib, qariyb 84 trln so'mga yetdi. Regulyativ kapital hajmi 18 foizga oshib, 124,8 trln so'mni va tavakkalchilikka tortilgan aktivlar 19 foizga ko'payib, 719 trln so'mni tashkil qildi. Kapital monandligi ko'rsatkichi 17,4 foizni tashkil etib (minimal talab 13%), o'tgan yil darajasida (17,5%) saqlanib qoldi.




2-rasm. 2024-yilda “Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari” doirasida tijorat banklari tomonidan kredit ajratish dinamikasi [2].

Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida aholini tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb qilish va qo'shimcha daromad manbalarini shakllantirish hamda kichik tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash maqsadida so'nggi 7 yilda jami 50 trln so'mdan ortiq imtiyozli kreditlar ajratilib, 2,3 millionga yaqin aholining daromad topishga qaratilgan faoliyat bilan shug'ullanishiga zamin yaratildi. 2024-yilda dasturlar amalga oshirilishi davom ettirilib, asosiy e'tibor, yoshlar va xotin-qizlarni daromadli mehnat bilan band qilishga qaratildi va hokim yordamchilari tavsiyalari asosida 372 mingdan ortiq loyihalarga jami 6,8 trln so'mdan ortiq imtiyozli kreditlar ajratildi. Ushbu imtiyozli kreditlar hisobidan, yoshlarning tadbirkorlik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan 150 mingdan ortiq loyihalariga 2,7 trln so'mlik va xotin-qizlarning 203 mingdan ortiq loyihalariga 3,2 trln so'mlik kreditlar ajratildi. Dasturlar doirasida ajratilgan kreditlarning 495 mlrd so'mi (7%) yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar, 6,3 trln so'mi (93%) o'zini o'zi band qilgan jismoniy shaxslar hissasiga to'g'ri keldi. Shuningdek, 2024-yilda ajratilgan kreditlarning 3,6 trln so'mi qishloq xo'jaligi (shundan, chorvachilik 1,5 trln so'm, issiqxona tashkil etish uchun 567 mlrd so'm, meva-sabzavot va bog'dorchilik uchun 518 mlrd so'm), 1,9 trln so'mi xizmat ko'rsatish, 838 mlrd so'mi hunarmandchilik yo'nalishi uchun hamda 433 mlrd so'mi ishlab chiqarish va boshqa sohalarga yo'naltirilgan.

Tadbirkorlik subyektlarining biznes tashabbuslari qo'llab-quvvatlash hamda investitsion loyihalarini moliyalashtirish, shuningdek, yangi ish o'rinlari yaratish orqali aholining bandligini ta'minlash va qo'shimcha daromad olish imkoniyatlari kengaytirishda banklarning o'rni va roliga katta ahamiyat berilmoqda. 2024-yilda tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash borasidagi 539 mingdan ortiq loyihalarga tijorat banklari tomonidan jami 160 trln so'm miqdorida kredit mablag'lari yo'naltirildi.

2024-yilda toifalar kesimida tadbirkorlik faoliyatiga ajratilgan kreditlar ulushi



3-rasm. 2024-yilda tadbirkorlik faoliyatiga ajratilgan kreditlar ulushi [2].



Xususan, ushbu kreditlarning 92,4 trln so'mlik yoki 2023-yilga nisbatan 26 foizga ko'p qismi kichik va o'rta tadbirkorlikni, shu jumladan, oilaviy tadbirkorlikni, xotin-qizlar va yoshlarning tadbirkorlik tashabbuslarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash maqsadlariga 538 mingdan ortiq loyihalarga yo'naltirildi. 2024-yilda tijorat banklari tomonidan savdo va xizmatlar sohasidagi tadbirkorlik subyektlarining qariyb 69 mingdan ortiq loyihalarini moliyalashtirish uchun 61,3 trln so'm miqdorida kredit mablag'lari yo'naltirildi. Ushbu mablag'larning 25 trln so'mi xizmatlar sohasidagi loyihalarga, 15,7 trln so'mi savdo faoliyatiga va 20,6 trln so'mi xizmatlar sohasidagi tadbirkorlarning aylanma mablag'larini to'ldirish uchun ajratilgan. Turizm faoliyatini qo'llab-quvvatlash uchun tijorat banklari tomonidan 5 771 ta tadbirkorlik subyektiga 4,6 trln so'mdan ortiq kreditlar ajratildi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, mamlakatning iqtisodiy farovonligida aynan mamlakatning bank tiziminining o'rni muhim. Mamlakatda aholi orasida pul aylanmasini aynan banklar va moliyaviy tashkilotlar tashkil qiladi. Shuning uchun ham, bankning inqirozga uchrashiga hech qaysi hukumat yoki Markaziy Bank yo'l qo'ymaydi. Bankrotlik holatiga kelganda, unda qisqa muddatli kredit ajratadi va bank likvidligini saqlab qolishiga sharoit yaratib beradi. Umuman olganda, hozirgi davrda O'zbekiston bank tizimi o'tgan yillarga nisbatan ancha yaxshilangan. Markaziy Bankning yillik hisobotlarida berilgan bankning barqarorlik ko'rsatkichlarining barchasi ijobiy natijalarni ko'rsatib turibdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Markaziy Bankning 2024-yil bo'yicha yillik hisoboti. https://cbu.uz/upload/medialibrary/57b/0k19fv1aey7lot5eyib3eae4rx8lc1jh/Markaziy-bank-yillik-hisoboti-2024_.pdf
2. https://uzdaily.com/en/state-owned-banks-maintain-dominance-in-uzbekistans-financial-sector/?utm_source=chatgpt.com
3. https://www.researchgate.net/publication/381795218_THE_ROLE_OF_COMMERCIAL_BANKS_IN_THE_ECONOMY_OF_THE_REPUBLIC_OF_UZBEKISTAN
4. <https://cyberleninka.ru/article/n/tijorat-banklarining-iqtisodiyotda-tutgan-o-rni-va-ahamiyati/viewer>
5. "Mamlakatimizda tijorat banklari aktivlarini boshqarish va tartibga solish mexanizmi", maqola-dekabr, 2024. file:///C:/Users/Admin/Downloads/MAMLAKATIMIZDA_TIJORAT_BANKLARI_AKTIVLARINI_BOSHQARISH_VA_TARTIBGA.pdf
6. <https://lex.uz/docs/-2699536>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

8-Maxsus son. Bakalavr talabalarining maqolalari to'plami

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>